

выдающимися писателями и поэтами, как Алишер Навои, Абдурауф Фитрат, Хамид Алимджан и Чингиз Айтматов, создает уникальные возможности для развития тематических маршрутов и культурных мероприятий.

Развитие литературного туризма способствует не только популяризации национальной литературы, но и укреплению культурных связей между народами. Для успешного продвижения данного направления необходимо усилить маркетинговую стратегию, развивать инфраструктуру, а также активно привлекать молодежь и специалистов в области туризма и литературы.

Таким образом, литературный туризм в Узбекистане обладает значительным потенциалом и может внести важный вклад в культурное и экономическое развитие страны, привлекая внимание к ее богатому наследию и истории.

Список литературы:

1. Усманова, З. М. (2022). К вопросам влияния литературы на общество. In *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes* (pp. 169-171).
2. Усманова, З., & Тишабаева, Л. (2020). Қўқон жадид матбуоти тарихининг айрим саҳифалари. *Взгляд в прошлое*.
3. Гуров, С. А., Страчкова, Н. В., & Алексеенко, М. А. (2018). Литературный туризм: систематика и географические тенденции развития. *Ученые записки Крымского федерального университета имени В.И. Вернадского. География. Геология*, 4(3), 3-16

USMON AZIM VA BOYSUN

Jumanova Shahnoza

PhD, dotsent . Qo'qon universiteti

e-mail: shahnozajumanova13081989@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada respublikamizning o'ziga xos tumanlaridan biri hisoblangan Boysunning madaniy merosi, an'analari va takrorlanmas tabiati haqida ijod qilib kelayotgan O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azimning ijtimoiy-ma'naviy ijoddagi o'rni va uning mintaq madaniyatiga qo'shgan hissasi chuqur o'rganildi. Shoirning Boysun an'alarini saqlash va rivojlantirishga qo'shgan hissasi, shuningdek, uning folklor, etnomadaniyat va mahalliy mintaqadagi o'rni tarixiy-manbaviy, etnografik va antropologik metodlar asosida tahlil qilindi. Ushbu tadqiqot o'quvchilarga nafaqat Boysun va Usmon Azim haqida yangi bilimlar beradi, balki O'zbekistonning noyob etnik-madaniy landshaftini tushunish, uning tarixiy ildizlarini saqlash va dunyo madaniyatiga integratsiyasi masalalarini anglab yetishga yordam beradi. Bundan tashqari, etnografiya, tarix, madaniy antropologiya va folklorshunoslik sohalariga qiziqadigan mutaxassislar, talabalar va madaniy merosni o'rganuvchilar uchun qimmatli manba hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Boysun, madaniy meros, an'alar va urf-odatlar, folklor va etnomadaniyat, madaniy antropologiya, etnografiya, dasht, adir, Vatan.

Kirish: Madaniyat va an'alar - bu har bir xalqning ma'naviy tayanchi, uning tarixiy ildizlarini ifodalovchi noyob merosdir. O'zbekistonning janubiy chekkasida joylashgan Boysun tumani esa o'zining qadimiy urf-odatlari, folklori, etnomadaniy boyligi bilan nafaqat mamlakatimiz, balki butun Markaziy Osiyo madaniy xaritasida alohida o'rin tutadi. Bu mintaq yuz yillar davomida turli sivilizatsiyalar chorrahasi bo'lib kelganligi sababli, uning madaniy landshafti xalq og'zaki ijodi, musiqiy an'analari, turli etnik guruhlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida shakllangan.

Boysun tumani — tabiatning har bir qirrasini go'zallik, tiniqlik va tarix nafasi bilan to'lgan noyob diyor. Uning tog'lari, buloqlari va yashil vodiylari nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo bo'ylab sayyohlar diqqatini tortadi. Boysun tumani "buloqlar diyori" sifatida tanilgan. Tog'lardan chiqadigan muzdek sovuq va toza suvli buloqlar - Katta Boybuloq, Chashmai Miron mahalliy aholi va sayyohlar uchun dam olish maskanidir. Boysunsoy daryosi esa vodiy bo'ylab oqib, tabiatga jon baxsh etadi.

Boysun tabiati mahalliy madaniyat bilan chambarchas bog'langan. Tog'lar, buloqlar va daryolar xalq ertaklari, qo'shiqlar va raqslarga ilhom manbai bo'lgan. Masalan: "Boysun bahori" festivali tabiat va an'analarni nishonlashga bag'ishlansa, "Yalli" raqslari tog'li landshaft va tabiat hodisalarini ifodalaydi.

Boysunning tog'lari, gullab-yashnagan yaylovlari, qorli cho'qqilari va bog'lari fotosurat san'ati va she'riyat uchun beqiyos manzaralar taqdim etadi. O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azim o'z she'rlarida Boysun tabiatini "yashil junon", "tog'lar sultoni" kabi ifodalarda abadiylashtirgan.

Usmon Azim ijodida Boysun o'zbek xalqining tarixiy xotirasi, milliy ruhiyati va betakror tabiati bilan jonli badiiy obraz sifatida aks etgan. Shoirning Boysunga bag'ishlangan she'rlari nafaqat badiiy qimmatga ega, balki bu hududni adabiy turizm markazlaridan biriga aylantirish uchun muhim manba bo'la oladi. Uning asarlarida tog'lar bag'rida joylashgan qishloqlar, qadimiy yodgorliklar, dasht, xalqning urf-odatlarini va an'analari poetik tarzda tasvirlanib, Boysunning jozibasini yanada oshiradi. Usmon Azim Boysunni nafaqat tug'ilgan joy, balki milliy o'zlikning ramzi sifatida ko'radi. Uning asarlari Boysunliklarning mehnatkashligi, sadoqati va tarixiy qadriyatlarini madh etadi. "Boysun buloqlari" kabi she'rlari vataniga bo'lgan muhabbatni ifodalaydi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, adabiy turizm orqali o'zbek adabiyoti va madaniy merosini xalqaro maydonda keng targ'ib etish, ichki va tashqi turizmni rivojlantirish, shuningdek, milliy o'zlikni mustahkamlash mumkin. Bugungi globallashuv sharoitida o'zbek adabiyotining madaniy turizm bilan integratsiyasini ta'minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.[1,78] Shu bois, Usmon Azim ijodi va Boysun hududining adabiy-badiiy ta'siri asosida turistik yo'nalishlarni shakllantirish nafaqat adabiyotshunoslik, balki madaniyatshunoslik va iqtisodiy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi.

asosiy qism: O'zbek adabiyotida milliy ruh, tarix va insoniy qadriyatlarni yuksak badiiylik bilan aks ettirishda yetakchi o'rin egallagan shoir va yozuvchilardan biri - Usmon Azimdir. Uning ijodi o'zining falsafiy teranligi, badiiy tasvirining nozikligi va teran tafakkuri bilan ajralib turadi. Ayniqsa, shoirning o'zbek adabiy tafakkurida alohida o'rin tutuvchi yondashuvlaridan biri - vatanparvarlik, milliy tarix va qadimiy yodgorliklarga bo'lgan e'tibori, ularni poetik tasvirlarda jonlantira olishi bilan bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan, Usmon Azim ijodida Boysun va uning tarixiy-ma'naviy qiyofasi alohida o'rin tutadi.

Boysun - O'zbekistonning eng qadimiy va betakror mintaqalaridan biri bo'lib, u o'zining boy tarixi, madaniy merosi va tabiiy go'zalligi bilan ajralib turadi. Uning insoniyat tarixidagi ahamiyati shunchalik kattaki, 2001-yilda YUNESKO tomonidan "Nomoddiy madaniy meros durdonasi" deya e'tirof etilgan.[2,27] Bu hudud o'zining qadimiy qoya suratlari, afsonalar bilan sug'orilgan tog'lari, xalq og'zaki ijodi va turli davrlardagi tarixiy hodisalarini bilan mashxurdir. Usmon Azim ana shu tarixiy-madaniy merosni o'z ijodida badiiy talqin qilgan ijodkorlardan biridir. Shoir ijodida Boysunning o'ziga hos poetik obrazga aylangani, ijodkorning ushbu hududga bo'lgan hissiy va badiiy qarashlari, shu bilan birga, Boysunning tarixiy va madaniy jihatlari Usmon Azimning she'riyati hamda publitsistik asarlarida qanday aks etilgani ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan tahlil qilishga urindik. Usmon Azimning Boysun haqida yozilgan she'rlarini o'qigan har bir kitobxon qalbida bir marotaba bo'lsada Boysunga borish, uning o'ziga xos tabiatidan bahramand bo'lish hissi paydo bo'lishi tabiiy. Chunki shoir ijodining o'ziga xos yo'nalishi va go'zal jihatlarning tub ildizi - ijodkor tug'ilib o'sgan zamin, uni ulg'aytirgan - ona tuproq, bepayon va yam-tashil adirlardir.

Usmon Azimning Boysunga bag'ishlangan she'rlarida ushbu hududning tabiati, tarixi va xalqining ma'naviy qudrati aks ettiriladi. Jumladan, uning "Boysun" nomli she'rida shoir bu yurtning go'zalligi va ulug'vorligini tasvirlab, uni tarixiy yodgorliklar va milliy ruh bilan bog'laydi:

Boysun - bir afsonadir, qadimiy ohang,
Tog'lar bag'rida sayrab turgan bir doston.

Osmoni baland, yuragi musaffo,
Ona yurt bag'ridagi muqaddas maskan.[3,98]

Bu satrlarda Boysun faqat geografik hudud sifatida emas, balki ajdodlar ruhini o'zida mujassam etgan muqaddas diyor sifatida tasvirlangan. Shoir Boysunning qadimiyligini, uning tarixiy ahamiyatini ta'kidlaydi va uni milliy o'zlik timsoli sifatida talqin qiladi.

Boysun - insoniyatning nomoddiy madaniy merosi durdonasi sifatida e'tirof etilgan hududlardan biri bo'lib, uning folklor an'analari, qo'shiqlari va urf-odatlar asrlar davomida saqlanib kelgan. Usmon Azim ana shu madaniy qatlamlarni o'z asarlarida badiiy jihatdan aks ettirgan.

Misol uchun, shoir Boysunning madaniy hayotini aks ettiruvchi she'rlarida xalq qo'shiqlari va dostonlari ohangini sezish mumkin:

Dutor sadosi yangrar tog' bag'rida,
Bir doston so'ylaydi ona tuproq.
Eshiting, ajdodlar sadosi unda,
Qadimiy yurakda mangu quvonch.[3,126]

Bu misralarda Boysunning musiqiy merosi, an'anaviy dator sadolari va ajdodlar xotirasi tasvirlanib, shoir o'tmish va hozirgi davr o'rtasida bog'liqlik yaratadi. Usmon Azim ijodida milliy peyzajlarning o'rni beqiyos. Milliy peyzajlar shoir tegishli bo'lgan geografik hududga xos tabiat manzaralarini aks ettiradi. Daho shoirlar esa o'zini butun insoniyatga tegishli deb biladi, umuminsoniy qamrovni ko'zda tutib, ekzotik peyzajlardan ham foydalanadi. Usmon Azim ijodida milliy peyzajlar shoir ruhiyatining o'zi tug'ilib o'sgan makon, tog'lar, dashtlar, bog'lar va boshqa tabiat unsurlari bilan chambarchas bog'liqligini, lirik qahramon kayfiyatidagi hayotga nisbatan o'chlik bevosita shoirning o'zi suv ichgan ildizlariga aloqadorligini ko'rsatadi:

Maysalar, tovonim, sizni sog'inlar,
Tog'lar, viqoringiz qalbimda mangu.
Qaydadir qo'zichoq bo'zlar, oh urar,
Qirlarda adashgan sog'inchimmi u?[4,62]

Ushbu she'riy parchada tasvirlangan tabiat manzarasi harakatda turibdi. Birinchi va ikkinchi qatordagi tasvirni tasavvur qilish uchun undalma yo'naltirilgan predmet bilan yo'nalmaning mazmunini bog'lash zarur. Lirik qahramon bir vaqtlar bolaligida maysalar ustida oyoq yalang yurganini, qarshisida tog'larning viqor to'kib turganini, qirlarda uyuridan adashib qolgan qo'zichoqning oh urib bo'zlaganini eslaydi. Qaydadir bo'zlayotgan qo'zichoqni "qirlarda adashgan sog'inch"ga o'xshatadi. Usmon Azim qo'llaydigan milliy peyzajlarning asosiy unsurlari: "tog'", "dasht", "bog'", "qir", "adir", "chimzor", "qishloq", "bug'doyzor" kabi joylar, "hut", "bahor", "kuz", "javzo" kabi mavsum nomlari tashkil qiladi. Shoir qo'llagan milliy peyzajlarning markazida "Boysun" turadi. Boysunning tabiat manzaralari shoirning g'oyaviy-badiiy kontseptsiyasini boyitish, voqeaband she'rlarning tematik kompozitsiyasini kuchaytirish, shoir dunyoqarashining asosiy mohiyatini ochish hamda she'r drammatizmini oshirib, lirik pafosni ko'tarishda asosiy o'rin tutadi.

Usmon Azim balladalar bilan tanishar ekanmiz, deyarli har bir balladasida ona tuproq – Boysun va uning betakror tabiati ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Shoirning "Dasht haqida ballada" boshdan oyoq Boysun va uning takrorlanmas dashti bilan kechgan munosabatlari zahiriga qurilgan.

"Dasht haqida ballada" she'rida lirik qahramon xotiralarga beriladi. "Lirik qahramon" – shoirning o'zi. Shoirga baqamti qilib tasvirlangan obraz esa bu – dasht. Dasht bu – vatanning bir parchasi, Boysunning bir timsoli.

Tog'lar kichraydi. Pasaydi osmon.
Yashab bo'lmaydi-ku axir engashib ...
Jo'nadim balandroq osmonlar tomon -
Ortimdan Boysunning dashti ergashdi.[4,54]

Dasht – shoirning tug'ilib o'sgan tuprog'i timsolidir.

Xalqona ohang va baxshiyona ruh Usmon Azim she'riyatining bosh mavzularini belgilaydi. “Baxshiyona” menga tog'u dashtlarda sharillatib ot surgan bobolarimdan yodgorlikdir” deb yozgan edi shoirning o'zi . Uning she'rlaridagi milliylikka yo'g'rilgan, quruq tasvir va balandparvozlikdan yiroq bo'lgan oddiylik, soddalik va samimiyat, og'zaki ijodda yetakchilik qiluvchi xususiyatlar ana shu baxshiyona ruhning asoslaridir. Usmon Azimning bolalikda ko'rgan-kechirganlari, Surxondaryodagi baxshilar bellashuvi, ko'pkari, kurash singari urf-odatlar, bolalik xotiralari uning ijodkor sifatida shaxsiyatini, e'tiqodi va dunyoqarashini shakllantirganligi tabiiy.

Usmon Azim o'z she'rlarida Boysunning ulug' tog'larini, jilg'alarini, yam-yashil daraxtlarini va bulutlar o'ynaydigan osmonini jonli ifodalaydi. Tumanning geografik manzaralari uning she'riyatida ramziy ma'nolar kasb etadi. Masalan, tog'lar qat'iyat va mustahkamlikni, daryolar esa hayotning doimiy oqimini anglatadi.

Toshdaymas, tog'day bo'lg'in,
Qoyangda qush uyg'onsin.
Eling senga qoqilmasin,
Eling senga suyansin.[5,327]

Baxshiyonalarda asosiy g'oya – yurtni ardoqlash, mardlikni ulug'lash, er yigitning tarbiyasi hamda dunyoning makkor o'yinlarini anglashga da'vatdir. Usmon Azim ijodida qo'llanilgan badiiy vositalar shoirning xalq tilidagi mavjud tasvir vositalaridan, uning beqiyos go'zal tilining yashirin imkoniyatlaridan juda o'rinli foydalanganini, shoirning o'ziga xos individual uslubi xalqona ekanini namoyon etadi.

Ijodkor bolaligida eshitganlari, turmush tashvishlaridan chekkan ozorlari, quvonch va qayg'ulari, orzu-umidlari uning she'rlarida turli-tuman badiiy vositalar ko'rinishida namoyon bo'laveradi. Shu ma'noda Usmon Azim she'riyatini kuzatadigan bo'lsak, unda, eng avvalo, tabiat unsurlari bilan omixtalangan badiiy vositalarning qahramon ruhiyatidagi o'zgarishlarni, insoniy mehrga tashnalik, do'stlikni, ona yurtga muhabbat tuyg'ularini ulug'lashga xizmat qilganligini ko'rish mumkin. Shoir ona yurti qadimiy urf-odatlari, folklori, musiqa va raqslarini she'rlarida abadiylashtirgan. Xalq ertaklari, dostonlar va maqollar uning ijodiga ilhom manbai vazifasini o'tagan.

Usmon Azim inson va tabiatning mangu uyg'unligi muammosini yurt taqdiri, millat taqdiri bilan bog'laydi. Baxshiyona she'rlarda ushbu xususiyat bo'rtib, ko'rinib turadi. “Mohiyatga ko'ra g'oya ko'pincha tabiatda namoyon bo'ladi”. [9,127] Shoir tabiatdan kutilmagan manbalar, shaffof tuyg'ular topadi. Shu bois peyzaj va she'riyat qadimdan to hozirga qadar egizak tushuncha sifatida talqin etiladi. Usmon Azim tabiat timsolida inson dunyosining murakkab nuqtalarini tadqiq etadi.

Karvon yo'li ketgunicha qizg'aldoqzor,
Yig'lamagin, yig'lagandan dunyo bezor. [5,318]

“Qizg'aldoqzor” peyzaj unsuri yana toqqa borib taqaladi. Chunki qizg'aldoq qoplagan adir orqali toqqa boriladi. She'rda Elbek baxshining suygan yori Oytumanni karvon olib ketmoqda. Oytuman borayotgan o'zga diyor esa “qorli tog'dan narida” joylashgan.

Usmon Azimning baxshiyona she'rlarida “tog” va “dasht” peyzajlari yetakchilik qiladi. Ushbu ikki peyzaj unsuri shoir she'riyatidagi xalqona ohang va baxshiyona ruhni, qolaversa, baxshiyona she'rlardagi bosh mavzularni belgilab beradi. Uning she'rlaridagi milliylikka yo'g'rilgan, quruq tasvir va balandparvozlikdan yiroq bo'lgan oddiylik, soddalik va samimiyat, og'zaki ijodda etakchilik qiluvchi xususiyatlar ana shu baxshiyona ruhning asoslaridir.

Yorug' oylarim, xayr,
Uzun soylarim, xayr,
Kindik qoni to'kilgan

Ena joylarim, xayr –
Boysunimdan ayrildim.[5,319]

Usmon Azimning topografik she'riyatga yorqin misol bo'la oladigan Boysun peyzaji baxshiyonalarda ham tez-tez tilga olinadi. Yuqoridagi she'riy parchada Boysundan ayro qolgan Bovir baxshi tilidan shoir o'z yurti bilan bog'liq iqrorlarini, sog'inchlarini bayon etadi. Boysun – Usmon Azim she'rlaridagi eng ko'p uchraydigan adabiy makon. Shoir o'zi tasvirlaydigan shaharning nomini ko'p ham tilga olavermasligi mumkin, lekin bolalik, ilk muhabbat, yurt sog'inchi ruhida Boysun nomi she'rning tag zamirida ham, she'r matnida qalqib turadi.

Go'r bo'ldima dosh bo'lib,
To'kilaman yosh bo'lib,
Asqartog'da qolayin
Xudo urgan tosh bo'lib –
Boysunimdan ayrildim.[5,342]

Baxshiyonalarda Boysun Alpomishning makoni deb tasvirlansa-da, aslida shoirning ichki sog'inchlari yo'nalgan nuqta, talpinish ob'ekti vazifasini bajaradi. Baxshiyonalarda "Boysun" adabiy makoni peyzajlarning bosh manbasi bo'lib xizmat qiladi. Bu haqda shoirning o'zi bunday yozadi: "Men boysunlikman. Buning ustiga Qo'ng'iro't urug'idanman. Jangu jadalda ko'rgazgan jasoratlari va mardliklari uchun Amir Temur Termiz atrofini Qo'ng'iro't urug'iga tortiq qilgan. Bu joylarda o'rnashgan qo'ng'iro'tlar o'zlariga qarashli manzilning eng chiroyli maskanini "Boysin" deb atashgan. Boysin qo'ng'iro'tlarning afsonaviy, dostonlarda kuylanib kelingan, kindik qoni to'kilgan Vatani. Bu so'z "boy" va "sin" qismlaridan iborat kim, "go'zal sinu sumbat" - "chiroyli, manazarali joy" deganidir".[8] Shoir she'rlarida uchraydigan "dasht", "tog'", "qir", "adir", "qizg'aldoqzor", "bog'", "daraxt", "tosh", "shamol" kabi peyzaj unsurlari bevosita Boysun tabiatiga aloqador ekanini sezish qiyin emas. "Daryoday ozod oqish", "oyday erkin boqish", "shamolday ozod kezish", "xas kabi qaltiramaslik", "saratonda daraxt kabi soya bo'lish", "qarg'a qoshida qarg'a bo'lib sayramaslik", "bulbulday jon o'rtash", "tog'dan qattiq peshona" kabi poetik birikmalar shoir baxshiyona she'rlaridagi ozod va bo'ysunmas ruhni Boysun tabiatidan olganini dalillaydi.[6,80]

Shoir Boysun tog'larini hayotiy sabr va bardosh timsoli sifatida tasvirlaydi. Tog'lar nafaqat tabiiy go'zallik, balki inson hayotining mashaqqatli yo'li va sabr-matonat timsoli sifatida namoyon bo'ladi.

Usmon Azim ijodida tarixiy voqealar va xalq taqdiri ham muhim o'rin tutadi. Uning asarlarida Boysunning tarixiy qirralari, ayniqsa, milliy ozodlik harakatlari va xalqning mashaqqatli hayoti keng yoritiladi. Shoir bu mintaqani qadimdan buyon xalqning sinovlardan o'tgan, bardoshli yurti sifatida ko'rsatadi:

Tog'lar bag'rida yotgan qoldiqlar,
Bir tarix so'zlaydi, tinmas ovoz.
Bu yurt ne janglarni ko'rgan, bilasan,
Ne bahodirlarni yetishtirgan oz. [3,127]

Bu satrlarda Boysun hududi faqat tabiati bilan emas, balki tarixiy jarayonlari, xalqining kurashchan ruhi va milliy o'zligining mustahkamligi bilan ham alohida o'rin tutishi ta'kidlanadi.

Usmon Azim ijodida Boysun nafaqat geografik maskan, balki milliy g'urur, tarix va adabiy timsol sifatida gavdalanadi. Shoir Boysunning tabiiy go'zalligi, tarixiy qadriyatlarini va ma'naviy merosini she'riy shaklda ifodalab, uni o'zbek adabiyotining muhim qismi sifatida tasvirlaydi.[7,98]

Usmon Azim yozgan har bir misraning tag zamirida xoh u makon, xoh zamon holati ifodasi bo'lsin, ko'z o'ngimizda Boysun tabiati o'z aksini namoyon etadi.

Shom chog'i yulduzlik baxti bor.
Sog'inchda yolg'izlik baxti bor.
Hasratda qo'shig'im gulladi,
Shu gulga ildizlik baxti bor. [5,321]

Ushbu iqrar Usmon Azimni tabiatning sinchkov kuzatuvchisi ekaniga misol bo'la oladi. Shomda yulduz chiqa boshlashi, qo'shiqning "gullashi" va gullagan qo'shiqning ildizi borligi shoirning teran-falsafiy mulohazalari, xulosalari ham tabiat qonunlari bilan omuxta ekanini ko'rsatadi. Shoir tabiatning barcha bo'laklaridan foydalanib, ularni harakatga keltirib she'rning tirikligini ko'rsatadi. Tirik she'r o'quvchining tuyg'ularini toblaydi, qalbini qalqitadi, so'z bilan yashash hissini tuydiradi.

Boshimdan davroning yeladi,
 "Yor" desam – shamoling keladi.
 Tog'lardan balandroq boshimni,
 Sog'inching qorlarga beladi. [5,360]

Shoir shunchaki aytmaydi. Balki, har bir so'zni harakatga keltiradi. O'z fikrini ma'lum ramz va obrazlar bilan ifoda etadi. Ushbu she'riy parchada ham shoir "tog'lardan balandroq" boshini yorning sog'inchi "qorlarga belaganini" aytar ekan, "tog'", "shamol", "qor" kabi peyzaj unsurlarini o'xshatish vositasi sifatida ishlatadi. Bu esa she'rdagi manzarani aniqroq tasavvur qilish va lirik qahramon kayfiyatini yaxshiroq his qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Chunki "poeziya tavsiflar bilan emas, balki, kartina va obrazlar bilan so'zlashi kerak; poeziya buyumni tavsif etmaydi va undan nusxa ko'chirmaydi, balki, uni yaratadi".[10,213] Ushbu yaratilgan obraz esa shoir ilgari surayotgan ma'lum bir g'oyani hamda shoirning dunyoqarashini ifoda qilishda muhim o'rin tutadi.

Shoir she'rlarida Boysunni ko'pincha afsonaviy diyor sifatida talqin qiladi. Tog'lar, qadimiy yodgorliklar, tabiat va xalqning yurakdan kelgan sadosi uning asarlarida muhim badiiy vosita sifatida gavdalanadi. Jumladan, uning she'rlarida Boysunning tarixiy shon-shuhrati, ajdodlarning o'lmas ruhi va hozirgi kun bilan bog'liqligi chuqur ma'noda aks ettiriladi. Bu yurtning shoir faqat tabiiy go'zallik manzili sifatida emas, balki xalqning tarixiy saboqlari, og'ir sinovlari va kurashchan ruhining timsoli sifatida tasvirlaydi.

Xulosa: Maqolada tahlil qilingan misollar shuni ko'rsatadiki, Usmon Azim ijodida Boysun – bu milliy o'zlikni anglash, tarix va madaniyatni badiiy yuksaklikda tasvirlash vositasidir. Shoir o'zining poetik ifoda uslubi orqali bu yurtning o'ziga xosligini, uning xalqimiz ma'naviyatidagi beqiyos o'rnini yuksak badiiy san'at bilan ochib beradi.

Yuqoridagi misollar tahlili shuni ko'rsatadiki, Usmon Azim ijodining ildizlari uning tug'ilib o'sgan ona zamini – Boysun tabiati bilan chambarchas bog'liq. Boysunning betakror tabiati, tog'lari, jilg'alari va shamollari uning she'riy olamida jonlanib, ichki tuyg'ularini, estetik qarashlarini shakllantirgan. Shoir tabiatni nafaqat tashqi go'zallik sifatida tasvirlaydi, balki undagi ruhni, inson qalbi bilan bog'liq ohanglarni his etadi. Boysunning kengliklari, osmoni va tog'lari Usmon Azimning she'riyati uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qilgan. U tabiatni realistik va badiiy talqin etib, uni hayot falsafasi va insoniy tuyg'ular bilan uyg'unlashtiradi. Shu tariqa, Usmon Azim ijodida Boysun tabiatining ohanglari she'riy kechinmalarga aylanib, o'quvchi qalbiga chuqur ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, Usmon Azimning Boysunga bag'ishlangan asarlari faqat poetik obrazlar yig'indisi emas, balki milliy madaniyat, tarixiy xotira va adabiy merosning muhim qismidir. U xalq o'zligini anglash, qadimiy ildizlariga qaytish va milliy g'ururni his qilish imkonini beradi. Shoir ijodida Boysunning aks etishi nafaqat badiiy jihatdan, balki tarixiy va ma'naviy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, Usmon Azimning Boysunga oid she'r va asarlarini tahlil qilish, ularning badiiy va falsafiy mohiyatini tadqiq etish o'zbek adabiyotining milliy ruhini tushunish uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi. Usmon Azimning ijodi Boysun tumanining madaniy va tabiiy boyligini butun O'zbekistonga va dunyoga yetkazishga xizmat qilgan. Uning she'rlari Boysunni abadiy qilgan she'riy yodgorlikdir, bu esa uning vataniga bo'lgan sadoqatini namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Robinson, M., & Andersen, H. (2021). Literary tourism: Exploring cultural heritage through literature. Oxford University Press.
2. UNESCO. (2023). The role of literary tourism in preserving cultural heritage. Retrieved from <https://www.unesco.org/literary-tourism>
3. Usmon Azim. Tanlangan asarlar. 2 jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2018
4. Usmon Azim. Saylanma. –Toshkent: Sharq, 1995.
5. Usmon Azim. Tanlangan asarlar. 1 jild. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2016
6. Sh.I. Jumanova. Usmon Azim she'riyatida peyzaj tipologiyasi. Fil.fan.fal.dok.dis. Farg'ona 2022.
7. Ikromjonovna, J. S. (2023). PEYZAJNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDAGI O'RNI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1, 97-99.
8. So'z haqida so'z.(Usmon Azim bilan suhbat) <https://img.uforum.uz>.
9. Gegel.F. Estetika. v.4t. – Moskva, 1968.
10. Qobilova, Z. (2024). ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING OZARBAYJONDA O'RGANILISHI. *Hamkor konferensiyalar*, 1(1), 215-219.
11. V.G.Belinskiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent, 1955
12. Tursunova,N. (2025). Alisher Navoiy an'alarining Muqimiy ijodidagi takomili. *Hamkor konferensiyalar*, 1(11), 260-263.
13. Tursunova, N. (2021). FOLKLORE MOTIVES IN MUKIMIY'S WORK. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(09), 187-191.

YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASI ASOSIDA RISKLARNI BAHOLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Kambarov Jamoliddin Xikmatillayevich

Qo'qon universiteti

Akademik ishlar bo'yicha prorektori

shoxrux.maxmudov@ferpi.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot konsepsiyasi asosida risklarni baholash tizimini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Ekologik va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda mavjud risklarni baholash usullarining samaradorligi tahlil qilinib, yashil indikatorlarni integratsiya qilish zaruriyati asoslab berilgan. Xalqaro tajribalar tahlili asosida O'zbekiston sharoitiga mos innovatsion yondashuvlar taklif etilgan. Tahlil natijalari asosida amaliy takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, risklarni baholash, ekologik xavf, barqarorlik, indikatorlar, integratsiya, innovatsion yondashuv.

Kirish: So'nggi yillarda dunyo miqyosida barqaror rivojlanishga erishish uchun yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston ham bu yo'nalishda keng qamrovli islohotlarni amalga oshirmoqda. Biroq mavjud risk baholash tizimlari ko'pincha ekologik omillarni yetarlicha e'tiborga olmaydi. Shu sababli risklarni baholash tizimini yashil iqtisodiyot konsepsiyasi asosida takomillashtirish zarur. Tadqiqotning maqsadi – ekologik va iqtisodiy barqarorlikni hisobga olgan holda risklarni baholash tizimini tahlil qilish va uni takomillashtirish yo'llarini asoslab berishdir.

Asosiy qism: Mazkur tadqiqotda tizimli tahlil, taqqoslash hamda kontent tahlil usullari qo'llanildi, O'zbekiston iqtisodiyotidagi risk baholash tizimlari o'rganildi va ularning yashil iqtisodiyot tamoyillariga moslik darajasi aniqlashtirildi. Germaniya, Janubiy Koreya, Xitoy kabi